

## **QURBONLIK RISOLASI** (Savol - javobli)

Tarjimon: **Sayfiddin Sayfulloh**

Hanafiy mazhabining olimi Xasip Asutayning ushbu risolasi ilmiy manbalarga asoslanganligi bilan birga, sodda, ommabop va savol-javob tarzida yozilgan. Shu bois, ushbu risolani kitobxonlarimiz uchun juda zarur va foydali, deb o'ylaymiz.

Toshkent  
«Movarounnahr»  
2005

### **MUQADDIMA**

Biz mansub bo'lgan Islom dinining moliy ibodatlaridan bo'lgan qurbonlik, buyuk Allohning ne'matlari uchun shukr etishimiz va Uning yo'lida fidokorlik qilishimizning bir nishonasidir.

Qurbonlik diniy bir ibodat bo'lishidan tashqari, ayni vaqtda uning axloqiy, ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyati ham bor. Qurbonlik shu jihati bilan ham Islomdagi o'zaro ijtimoiy yordamlashishning go'zal bir namunasini tashkil etadi. Qurbonlikdan maqsad, Alloh roziligini topish. Bu maqsadning amalga oshishi esa kibr va riyodan uzoq bo'lib, samimiyat va ixlos bilan qurbonlikni ado etishga bog'liqdir. Bo'lmasa, Allohning na qurbonlik go'shtiga, na qoniga ehtiyoji bor. Qur'oni karimda mavzuga doir aytilganki: **«Allohga (qurbonlik) go'shtlari ham, qonlari ham yetmas. Lekin, u Zotga sizlardan taqvo yetar. Alloh sizlarni hidoyat qilgani sababli - U zotni ulug'lashlaringiz uchun - ularni sizlarga bo'ysundirib qo'ydi. Ezgu ish qiluvchilarga xushxabar bering!»**. (Haj surasi, 37-oyat).

Musulmon birodarlarimizning bu ibodatni bajarayotganlarida, umuman shu mavzu bilan bog'liq ko'plab savollar tushishini hamda mavzuga doir sodda, ommabop manbalarning kamligini inobatga olib diniy, axloqiy, ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyati bo'lgan bu sohada kitob yozishga kirishdik.

Kitobimizni yozayotganda mavzuni xalqimiz va din olimlari foydalanadigan shakl va uslubda tushuntirishga harakat qildik. Hukm va masalalarni hanafiy fiqhi asosida tushuntirdik. Faqat ayrim muhim va farqli qarashlar bor bo'lgan o'rinlarda shofi'iy mazhabining nuqtai nazarlarini ham sharh qismida va snoska (matn osti)da izohlab berdik. Lozim bo'lganda murojaat qilish uchun imkoni boricha manbalarni ham ko'rsatib o'tdik. Ushbu ishimiz shu holatida ham mavzuimizga doir muhim bir bo'shliqni to'ldiradi, degan qanoatdamiz. Lekin qancha harakat qilmaylik xato va kamchiliklar o'tib ketgan bo'lishi mumkin. Shu sababli foydali tanqidlarni samimiyat bilan qabul qilamiz va keyingi nashrlarda inobatga olamiz, inshoalloh. Muvaffaqiyat Alloh dandir.

### **Muallif**

## **QURBONLIKNING TA'RIFI**

**Savol:** Qurbonlik nima?

**Javob:** Qurbonlik lug'atda «yaqinlashmoq», istilohda Qurbon hayiti kunlarida Allohga ma'naviy yaqinlashish maqsadi bilan so'yilgan hayvonga (jonliqqa) berilgan nomdir.

## **Qurbonlikning shar'iyligi**

**Savol:** Qurbonlik qachon mashru' (shar'iy amal) qilingan?

**Javob:** Qurbonlik hijratning ikkinchi yili Madinada mashru' qilingan. Shar'iy amalligi kitob, sunnat va ijmo' bilan sobitdir.

**Savol:** Qurbonlik shar'iyligining hikmati nimada?

**Javob:** Buyuk Allohning ne'matlari uchun shukr etish, Haq yo'lida fidokorlik qilish, moddiy imkoniyatlari yo'l qo'ymagan kimsalarning ma'lum bir vaqtlarda bo'lsa ham, go'sht yeyishlarini ta'minlash, pirovardida savob olmoq va bir qancha balolardan asranmoq kabi diniy, axloqiy va ijtimoiy maqsadlarga yetishish Qurbonlik shar'iyligining hikmatidir. Qurbonlik ayni paytda Islomdagi ijtimoiy o'zaro yordamlashishning va birdamlikning go'zal namunalaridan biridir.

## **Qurbonlikning tarixi**

**Savol:** Qurbonlik ibodatining tarixi qaysi davrga borib taqaladi?

**Javob:** Qurbonlik ibodatining tarixi ancha eskidir. Bugungi ko'rinishi Hazrat Ibrohim alayhissalom va o'g'li Ismoil alayhissalomga borib taqaladi. Hazrati Ibrohim bir kuni o'g'li Ismoilni qurbonlik qilayotganini tushida ko'radi, bu - ilohiy vahiy bo'ladi. Hazrati Ibrohim ahvolni o'g'liga tushuntiradi, o'g'li ham bunga tayyor, rozi ekanligini bildiradi. Hazrati Ibrohim o'g'li Ismoilni qurbonlik qilishga tayyorlanayotganda Janobi Haq ularning bu samimiyatlari va taslimiyatlari sababli Ismoilning o'rniga bir qo'y yuboradi. Hazrati Ibrohim Ismoilning o'rniga bu qo'yni qurbonlik qiladi. Qur'oni Karimda bu haqda aytiladi: «Bas, qachonki u (otasi) bilan birga yuradigan bo'lgach, (Ibrohim): «Ey, o'g'ilcham, men tushimda seni (qurbonlik uchun) so'yayotganimni ko'rmoqdaman. Endi sen o'zing nima ra'y (fikir) qilishingni bir (o'ylab) ko'rgin», - degan edi, u aytdi: «Ey, otajon, senga (tushingda Alloh tomonidan) buyurilgan ishni qilgin. Inshoalloh, meni sabr qiluvchilardan topursan». Bas, qachonki ikkisi ham (Allohning amriga) bo'yin sunib, (Ismoilni qurbonlikka) peshonasi bilan (erga) yotqizgan ediki, Biz unga nido qildik: «Ey, Ibrohim! Darhaqiqat, sen tushni tasdiq etding. Albatta, Biz ezgu ish qiluvchilarni mana shunday mukofotlaymiz». Albatta, bu (qurbonlikka buyurishimiz) ayni sinovdir. Biz (Ismoilning) o'rniga katta bir (qo'chqor) so'yishni evaz qilib berdik. Keyingi (avlod)lar orasida u (Ibrohim) haqida yaxshi gaplarni qoldirdik. Ibrohimga salom! Biz ezgu ish qiluvchilarni mana shunday mukofotlaymiz! Darhaqiqat, u Bizning mo'min bandalarimizdandir!». (As-soffat surasi, 102-111-oyatlar).

## **Qurbonlikning hukmi**

**Savol:** Qurbonlik qilishning hukmi nimadir?

**Javob:** Qurbonlik qilish vojibdir.

**Savol:** Qurbonlik vojib bo'lishining dalili nima?

**Javob:** Qur'ondagi: «Robbing uchun namoz o'qi va qurbonlik qil», ma'noli oyati karima hamda «Sharait, imkoniyati bor bo'lib qurbonlik qilmagan kishi namozgohimizga yaqinlashmasin» ma'nosidagi hadisi sharif qurbonlik vojib bo'lishining dalilidir.

## **Qurbonlikning vojibliigi**

**Savol:** Qurbonlik kimlarga vojibdir?

**Javob:** Qurbonlik boy va muqim (musofir bo'lmagan) har bir musulmon erkak va ayolga vojibdir.

**Savol:** Boy deb kimga aytiladi?

**Javob:** Boy deb, qarzidan va asosiy ehtiyojlaridan boshqa 20 misqol (80.18 gr) oltin yoki shu qiymatdagi pul yoki molga ega bo'lgan odamga aytiladi. Qurbonlik bilan zakotning nisobi bir xil bo'lishi bilan birga, qurbonlik nisobida molning ko'payadigan bo'lishi yoki qurbonlik muddatidan bir yil o'tishi kerak degan shart yo'qdir .

**Savol:** Asosiy ehtiyojlar nimalar?

**Javob:** Odamning yashayotgan uyi, kerakli uy ashyosi, libos, ulov, ish qurollari va shunga o'xshashlar asosiy ehtiyojlarning muhimlaridir.

**Savol:** Muqim deb kimga aytiladi?

**Javob:** Muqim deb qurbonlik so'yiladigan kunlarda oilasi yashayotgan joyda bo'lgan yoki safarda kamida o'n besh kun yoki undan ham ko'p qolishga niyat qilgan kishiga aytiladi. Qurbonlikni ta'minlash, so'yish va go'shtini haqdor kishiga berish qiyin bo'lgani uchun musofir kishiga agar boy bo'lsa ham qurbonlik qilish vojib qilinmagan. Lekin musofir xohlasa nafl tariqasida qurbonlik qilishi mumkin.

**Savol:** Kishining tug'ilib o'sgan yoki safar (musofir) hisoblanadigan masofaga borib qiladigan qurbonligining hukmi qanday?

**Javob:** Kishining u joyda uyi yoki aqori bo'lmasa qilinadigan qurbonligi naflidir. Uyi yoki aqori bor bo'lsa qurbonlikning hukmi ixtiloflidir. Ba'zilarga ko'ra nafl, ba'zilarga ko'ra vojibdir. Birinchi qarash to'g'riroqdir. Bunday ixtiloflar bunday vaziyatlarda kishining musofir yoki muqim bo'lishiga borib taqaladi .

**Savol:** Musofir bo'lgan kishining yashayotgan joyida vakolat bilan qilgan qurbonligining hukmi qanday?

**Javob:** Musofir bo'lgan kishining yashayotgan joyida vakolat bilan qilgan qurbonligi nafldir.

**Savol:** Muqim bo'lgan kishining safar masofasida bo'lgan bir joyda vakolat bilan qilgan qurbonligining hukmi qanday?

**Javob:** Muqim bo'lgan kishining safar masofasida bo'lgan bir joyda vakolat bilan qilgan qurbonligi vojibdir. Bu ikki masalada qurbonlik so'yiladigan joyga emas, qurbonlik sohibining muqim yoki musofir bo'lishiga e'tibor qilinadi.

**Savol:** Musofir bo'lgan kishi qurbonlik so'ygandan keyin qurbonlik qiladigan kunlarda muqim holatiga kelsa yana qurbonlik qilishi kerakmi?

**Javob:** Yo'q, musofir qurbonlik qilgandan keyin Hayit kunlarida muqim holatiga kelsa yana qurbonlik qilishi kerak emas.

**Savol:** Qurbonlik vojib bo'lishi uchun aql va balog'at shartmi?

**Javob:** Qurbonlik vojib bo'lishi uchun Imomi A'zam va Abu Yusufga ko'ra aql va balog'at shart emas. Shu sababli boy bo'lgan bir bola yoki ruhiy kasal bo'lgan kishining molidan otasi yoki valiyi qurbonlik qilishi kerak. Bu qurbonlikning go'shtidan faqat bola yoki ruhiy kasal bo'lgan kishining o'zi yeyishi mumkin. Go'shtning qolgan qismini kiyim-kechakka yoki foydalanadigan boshqa narsalarga almashtirish mumkin. Lekin Imom Muhammadga ko'ra qurbonlik vojib bo'lishi uchun aql va balog'at shartdir. Fatvo ham shunga ko'radir. Shu sababli bola yoki ruhiy xastaning molidan qurbonlik qilinishi kerak emas.

## **QURBONLIKNING XILLARI**

**Savol:** Hukm tomonidan qurbonlik necha xildir?

**Javob:** Hukm tomonidan qurbonlik vojib va nafl bo'lib, ikki xildir.

**Savol:** Vojib bo'lgan qurbonlik xillari qaysidir?

**Javob:** Vojib bo'lgan qurbonlik xillari shulardir:

- 1-Boyning hayit kunlari qilgan qurbonligi;
- 2-Nazr qilingan qurbonlik;
- 3 Kambag'alning qurbonlik niyati bilan sotib olgan qurbonligi.

**Savol:** Nafl bo'lgan qurbonlik xillari qaysidir?

**Javob:** Nafl bo'lgan qurbonlik xillari shulardir:

1. Musofirning qilgan qurbonligi;
2. Kambag'alning qurbonlik uchun niyat qilmay sotib olgan yoki mulkiyatida

(tasarrufida) bo'lgan hayvonlardan qilgan qurbonligi.

3. Kishining Qurbon hayiti kunlaridan tashqari Alloh rizosi uchun so'yg'an qurbonligi.

### **Qurbonlik qilinadigan hayvonlar**

**Savol:** Qaysi hayvonlar qurbonlik qilinishi mumkin?

**Javob:** Hayvonlardan faqat qo'y, echki, to'ya va qoramol qurbonlik qilinishi mumkin. Qo'tos ham qoramol jinsidandir. Xo'roz, tovuq, kurka va g'oz kabi uy parrandalari hamda go'shti yeyiladigan yovvoyi hayvonlar qurbonlik niyati bilan so'yilishi mumkin emas.

### **Qurbonlik molining yoshi**

**Savol:** Qurbonlik qilinadigan hayvonning yoshi nechada bo'lishi kerak?

**Javob:** Qo'y va echki bir, tuya besh, qoramol ikki yoshdan o'tgan bo'lishi kerak. Faqat qo'y olti oyni tamomlaganda bir yoshni tamomlagan kabi gavdali bo'lsa, u ham qurbonlik qilinishi mumkin. Qo'ydan tashqari boshqalari har qancha salobatli ko'rinsalar ham belgilangan yoshga to'lmaguncha qurbonlik qilinishlari joiz emas .

### **QURBONLIKDA SHERIKCHILIK QILISH**

**Savol:** Bir hayvon nechta odam nomidan qurbonlik qilinishi mumkin?

**Javob:** Bir qo'y yoki echki faqat bir kishi nomidan qurbonlik qilinishi mumkin. Bir tuya yoki bir qoramol bir kishidan yetti kishiga qadar odamlar nomidan qurbonlik qilinishi mumkin. Yetti kishidan oshmaslik sharti bilan sheriklarning toq yoki juft bo'lishlarining aslo farqi yo'q.

**Savol:** Boy bir odam o'zi uchun qurbonlik qilish niyati bilan sotib olgan qoramolga boshqani sherik qilishi joizmi?

**Javob:** Ha, boy bir odam o'zi uchun qurbonlik qilish niyati bilan sotib olgan qoramolga keyinroq boshqalardan badalini (haqini) olib sherik qilish mumkin. Lekin bunda bir noxushlik bor. Chunki u odam bergan so'zidan qaytgan hisoblanadi. Bu holat eng yaxshisi, olingan pulni sadaqa qilinishidir.

**Savol:** Kambag'al bir odamning o'zi uchun qurbonlik qilish niyati bilan sotib olgan bir qoramoliga boshqalarni sherik qilishi joizmi?

**Javob:** Yo'q, kambag'al bir odamning bu holatda boshqasini sherik qilishi joiz emas. Chunki kambag'al uni sotib olib o'ziga vojib qilgan.

**Savol:** Bir odamning boshqalarni sherik qilish niyati bilan qoramol sotib olishi, keyin boshqalarni sherik qilishida karohat bormi?

**Javob:** Yo`q, bu vaziyatda boshqalarni sherik qilishda karohat yo`qdir.

### **Sheriklardan talab qilingan shartlar**

**Savol:** Qurbonlikda sheriklardan talab qilingan shartlar qaysilar?

**Javob:** Bir qoramol yoki tuyani qurbonlik qilishda sherik bo`lganlardan talab qilingan shartlar shulardir:

1. Barcha sheriklarning musulmon bo`lishlari;
  2. Hammasining qurbonlik niyati bilan sherik bo`lishlari;
  3. Har birining umumiy qurbonlikdan eng kamida yettidan biriga ega bo`lishi;
- Sheriklardan biri musulmon bo`lmasa yoki qurbonlik niyati bilan emas, go`sht uchun qo`shilsa yoki birining hissasi yettidan birdan kam bo`lsa, u qurbonlik tamoman qabul qilinmaydi. Lekin (niyatda) qurbonlik xillarining bir xil bo`lishi shart emas. Ya`ni bir qismining vojib qurbonligiga, bir qismining sunnat, nafl, o`lik (marhum nomidan) yoki aqiqa kabi farqli qurbonlik xillari uchun niyat qilinishi joizdir. Barcha sheriklarning bir xil qurbonlik (turi) uchun sherik bo`lishlari mustahabdir.

**Savol:** Sakkiz kishining ikkita qoramolga sherik bo`lishlari joizmi?

**Javob:** Yo`q, joiz emas. Hatto sakkiz kishining sakkizta qoramolga sherik bo`lishlari joiz emas. Chunki bu holda har bir sherikning har bir qoramoldagi hissasi yettidan birdan oz. Lekin yetti yoki kamroq kishining bir qoramolga sherik bo`lishlari joiz bo`lgani kabi birdan ko`p qoramolga ham sherik bo`lishlari joizdir. Zero, bu holatda har bir sherikninghar bir qoramolga eng kamida yettidan bir hissasi bordir.

**Savol:** Ikki kishi ikki qo`y uchun sheriklik qilishlari joizmi?

**Javob:** Ha, ikki kishining ikki qo`y uchun istihsonan sherikchilik qilishi joizdir.

**Savol:** Nazr qurbonligi niyati bilan bir qoramol yoki bir tuyaga sherikchilik qilish joizmi?

**Javob:** Ha, nazr qurbonligi niyati bilan bir qoramol yoki tuyaga sherikchilik qilish joizdir. Chunki fiqh kitoblaridagi «qurbat jihatining (qurbonlik turlarining) farqli bo`lishida zarar yo`qdir» jumllaridan birortasida nazr qurbonligi istisno qilinmagan.

**Savol:** Valima (uylanish ziyofati) niyati bilan bir qoramol yoki bir tuyaga sherikchilik qilish joizmi?

**Javob:** Ha, shukr yoki sunnat niyati bilan valima uchun bir qoramol yoki bir tuyaga sherikchilik qilish joizdir.

**Savol:** Qazo qurbonligi niyati bilan bir qoramol yoki bir tuyaga sherikchilik qilish joizmi?

**Javob:** Yo`q, qazo qurbonligi niyati bilan bir qoramol yoki bir tuyaga sherikchilik qilish joiz emas. Agar sheriklardan biri bunga niyat qilsa, niyati hisoblanmay, qazoga niyat

qilgan narsa nafлга aylanadi. Boshqa sheriklarning qurbonliklari sahih bo'lsa ham hissalarini umumiy hissa bo'lganligi uchun hammasining sadaqa qilinishi kerak.

## **AFZAL BO'LGAN QURBONLIK**

**Savol:** Qaysi hayvonni qurbonlik qilish afzalroqdir?

**Javob:** Tuya qoramoldan, qoramol qo'ydan, qo'y echkidan afzalroq. **Savol:** Qurbonlikning erkagi afzalmi yoki urg'ochisimi? **Javob:** Qo'y va echking erkagi, tuya bilan qoramolning urg'ochisi afzaldir.

**Savol:** Qo'y yoki echkini qurbonlik qilish afzalmi, yo'qsa, tuya yoki qoramolning yettidan bir hissasiga sherikchilik qilganmi?

**Javob:** Go'sht va qiymatda teng bo'lgan taqdirda qo'y yoki echki qurbonlik qilish, tuya yoki qoramolning yettidan bir hissasiga sherikchilik qilishdan afzalroq.

## **Qurbonlikning ruknlari**

**Savol:** Qurbonlikning ruknlari qaysilar?

**Javob:** Qurbonlikning faqat bir rukni bor, u ham bo'lsa, qurbonlik qilinishi joiz bo'lgan hayvonlardan birini so'yishdir. Hayvonni so'ymasdan tirik yoki evazini (haqini) kambag'alga berish bilan qurbonlik mas'uliyatidan qutilmaydi.

## **Qurbonlik sahih bo'lishining shartlari**

**Savol:** Qurbonlik sahih bo'lishining shartlari qaysilar?

**Javob:** Qurbonlik sahih bo'lishining shartlari shulardir:

1. Qurbonlik qilinadigan hayvonning qusursiz bo'lishi.
2. Vaqtida so'yilgan bo'lishi.

## **Qurbonlikka to'siq bo'lgan kamchiliklar**

**Savol:** Bir hayvonning (jonliqning) qurbonlik qilinishiga to'siq bo'lgan qusurlar qaysilardir?

**Javob:** Bir hayvonning qurbonlik qilinishiga to'siq bo'lgan kamchiliklarning asosiylari shulardir:

1. Kasalligi aniq oshkor bo'lsa;
2. Suyaklari mag'zida ilik qolmaydigan darajada ozg'in bo'lsa;
3. Ikki yoki bir ko'zi ko'r bo'lsa;
4. Oqsayotgan oyog'ini yerga bosib, qurbonlik qilinadigan joyga borolmaydigan darajada cho'loq bo'lsa;

5. Tishlarini ko'pi to'kilgan bo'lsa;
6. Qulog'ining yoki dumining yarmidan ko'pi uzilgan yoki kesilgan bo'lsa;
7. Shoxlaridan biri yoki ikkisi tomiri bilan kesilgan bo'lsa;
8. Qo'yning bir, qoramolning ikki yelinininguchi uzilgan bo'lsa;
9. Dumi yoki qulog'i tug'ilgan paytidanoq bo'lmagan bo'lsa;
10. Burni kesilgan bo'lsa;
11. Faqat axlat yegan bo'lsa;
12. Tilining ko'p qismi kesilgan bo'lsa.

Lekin qurbonlik hayvonining g'ilay, qo'tir yoki jinni bo'lishida, quloqlarining teshilgan yoki yorilgan yoki uchidan kesilib osilib yotgan holatda bo'lishida, jinsiy olatlarining yo'qligida yoki bichilgan holda bo'lganligida zarar yo'qdir.

**Savol:** Qurbonlik qilishga to'siq bo'lgan qusurlar nima bilan belgilangan?

**Javob:** Bu qusurlardan to'rttasi (aniq kasallik, ozg'inlik, ko'rlik va cho'loqlik) hadis bilan belgilangan. Mazkur qusurlar darajasida yoki ulardan badtarroq bo'lgan boshqa qusurlar yuqoridagi qusurlarga qiyos qilingan va mujtahidlar tomonidan qo'shilgandir.

**Savol:** Boy kishining sotib olgan qurbonligida belgilangan qusurlardan biri keyinroq paydo bo'lsa, o'rniga boshqasini olib so'yishi kerakmi?

**Javob:** Ha, bu holatda boy kishi avvalgisining o'rniga boshqasini olib so'yishi kerak.

**Savol:** Kambag'al odamning sotib olgan qurbonligida qusurlardan biri keyinroq paydo bo'lsa, uning o'rniga boshqasini olib so'yishi kerakmi?

**Javob:** Yo'q, kambag'al odamning avvalgisining o'rniga boshqa bir hayvon olib so'yishi kerakmas. Bunday qusurli bir hayvonning so'yilishi kifoyadir. Chunki bu qurbonlik u kambag'al uchun nafldir. Naflda esa kenglik va qulaylik bordir.

**Savol:** Qurbonlik hayvoni so'yish asnosida qusurlansa, o'rniga boshqasini olish kerakmi?

**Javob:** Yo'q, bu vaziyatda boy bo'lsin, xoh kambag'al bo'lsin o'rniga boshqasini olishi kerak emas.

**Savol:** Qurbonlik hayvonda mavjud bo'lishi makruh sanalgan qusurlar qaysilar?

**Javob:** Qurbonlik hayvonda mavjud bo'lishi makruh sanalgan asosiy qusurlar shulardir:

1. Qarilik sababi bilan sutdan yoki tug'ishdan qolgan bo'lsa;
2. Qulog'i yorilgan yoki teshilgan bo'lsa;
3. Yangi tug'ilgan bo'lsa;
4. Bo'g'oz (tug'ishi yaqin qolgan)bo'lsa.

**Savol:** Boy odamning sotib olgan qurbonlik hayvoni o'lsa, o'rniga boshqasini olishi kerakmi?



**Javob:** Ha, boy odamning sotib olgan qurbonlik hayvoni o'lsa, o'rniga boshqasini olishi kerak.

**Savol:** Kambag'al odamning sotib olgan qurbonlik hayvoni o'lsa, o'rniga boshqasini olishi kerakmi?

**Javob:** Yo'q, kambag'al odamning sotib olgan qurbonlik hayvoni o'lsa, o'rniga boshqasini olishi kerak emas.

**Savol:** Boy kishining sotib olgan qurbonlik hayvoni o'g'irlansa yoki yo'qolsa, o'rniga boshqasini so'ygandan keyin topilsa, uni ham so'yishi kerakmi?

**Javob:** Yo'q, boy odamning bu holatda uni ham so'yishi kerak emas. Chunki qurbonlik so'yish burchini ado etib bo'lgandir.

**Savol:** Kambag'al kishining sotib olgan qurbonligi o'g'irlansa yoki yo'qolsa, o'rniga boshqasini so'ygandan keyin topilsa, uni ham so'yishi kerakmi?

**Javob:** Ha, kambag'al kishining bu holatda uni ham so'yishi kerak. Chunki kambag'alning qurbonlik niyati bilan sotib olgan hayvoni qurbonlik qilish uchun atalgandir. Unga qurbonlik vojib bo'lmagan bo'lsa ham, sotib olgan qurbonligi o'ziga (qurbonlikni) lozim qilgan.

**Savol:** Boy bir odamning qurbonlik uchun olgan hayvonini sotishi joizmi?

**Javob:** Imomi A'zam va Imomi Muhammadga ko'ra boy bir odamning qurbonlik uchun olgan hayvonini sotishi karohat (makruhlik) bilan joizdir. Bu holatda o'rniga boshqa o'xshashini yoki yaxshirog'ini olib qurbonlik qiladi. Abu Yusufga ko'ra qurbonlik niyati bilan olingan hayvonni sotishi joiz emas.

**Savol:** Kambag'al bir odamning qurbonlik niyati bilan olgan hayvonini sotishi joizmi?

**Javob:** Yo'q, kambag'al bir odamning qurbonlik niyati bilan olgan hayvonini sotishi joiz emas. Chunki kambag'alning bu maqsad bilan olgan hayvoni qurbonlik uchun atalgandir.

**Savol:** Qurbonlik niyati bilan sotib olingan hayvonni sotishi joiz bo'lsa, almashtirilishi ham joizmi?

**Javob:** Ha, qurbonlik niyati bilan olingan bir hayvonni qaysi hollarda sotilishi joiz bo'lsa, o'sha hollarda almashtirilishi ham joizdir. Qaysi hollarda sotilishi joiz bo'lmasa, o'sha hollarda almashtirilishi ham joiz emasdir.

**Savol:** Qurbonlik hayvoni so'yilishidan oldin tug'sa, bolasini ham so'yish kerakmi?

**Javob:** Ha, bu holda bolasini ham so'yish kerak. Chunki bolasi onasiga bog'liqdir. Agar bolasi so'yilmasdan sotilsa, pulini sadaqa qilish kerak.

## **QURBONLIK QILISHNING VAQTI**

**Savol:** Qurbonlik qachon qilinadi?

**Javob:** Qurbonlik qilishning vaqti, Qurbon hayitning birinchi kuni tong boshlanishi bilan boshlanadi va uchinchi kuni quyosh botishigacha davom etadi. Lekin hayitning birinchi kuni so'yilishi afzalroq. Shaharda va hayit namozi o'qiladigan joylarda qurbonlikni hayit namozidan keyin so'yish shartdir. Biroq Hayit namozi o'qilmaydigan joylarda hayit kuni tong ota boshlashi bilan so'yilishi mumkin.

**Savol:** Birinchi kun zavol vaqti kirishdan oldin hayit namozi o'qilmagan bo'lsa, qurbonlik qilish joizmi?

**Javob:** Hayitning birinchi kuni zavol vaqti kirmasidan oldin hayit namozi o'qilmagan bo'lsa, zavoldan oldin qurbonlik qilish joiz emas. Faqat hayitning birinchi kuni zavol vaqtigacha hayit namozi o'qilmagan bo'lsa, zavol vaqtdan keyin qurbonlik qilish joiz bo'ladi. Agar Hayit namozining o'qilishi ikkinchi yoki uchinchi kunga qoldirilgan bo'lsa, bu kunlarda qurbonlik zavol vaqtdan oldin ham, keyin ham so'yilishi mumkin. Hayit namozining o'qilishini kutish kerakmas. Chunki hayit namozi bilan qurbonlik so'yishning orasidagi tartib, adolda shart bo'lib, qazoida shart emas. Bizga ma'lumki hayit namozining vaqti quyosh bir yoki ikki nayza yuqoriga ko'tarilishidan zavol vaqtigacha bo'lgan vaqtdir.

**Savol:** Qurbonlik so'yilgandan keyin u kunni hayit emas arafaligi ma'lum bo'lsa, qilingan qurbonlik qurbonlikka o'tadimi?

**Javob:** Ha, qurbonlik so'yilgandan keyin u kunning hayit emas arafaligi ma'lum bo'lsa, qilingan qurbonlik qurbonlikka o'tadi. Chunki bu xil xatolardan har doim saqlanmoq mumkin emas.

**Savol:** Qurbonlik vojib bo'lishi uchun vaqtning qaysi jihatiga e'tibor qilinadi?

**Javob:** Qurbonlik vojib bo'lishi uchun vaqtning oxiriga e'tibor qilinadi. Ya'ni Qurbon hayitning uchinchi kuni quyosh botishidan oldin boy bo'lgan odam qurbonlik so'yishi kerak. Aksincha, o'sha kuni quyosh botishidan oldin kambag'al bo'lgan yoki o'lgan odamdan qurbonlik majburiyati ketadi.

**Savol:** Boy bo'lgan bir odam qurbonlik so'ymay, hayit kunlari o'tgach kambag'al bo'lib qolsa, qurbonlik majburiyati ketadimi?

**Javob:** Yo'q, bu holda kishining qurbonlik majburiyati ketmaydi.

**Savol:** Muqimlik va musofirlik uchun ham vaqtning oxiriga e'tibor qilinadimi?

**Javob:** Ha, muqimlik va musofirlik uchun ham vaqtning oxiriga e'tibor qilinadi. Ya'ni Qurbon Hayitining uchinchi kuni quyosh botishidan oldin muqim bo'lgan odam qurbonlik qilishi kerak. Aksincha, o'sha kuni quyosh botishidan oldin musofir bo'lgan kishidan qurbonlik majburiyati ketadi.

**Savol:** Kambag'al bir odam qurbonlik qilgandan keyin qurbonlik qilinadigan kunlarda boy bo'lsa yana qurbonlik qilishi kerakmi?

**Javob:** Ha, bu holda sahii qarashlarga ko'ra yana qurbonlik qilishi kerak.

### **Vaqtida so'yilmagan qurbonlik**

**Savol:** Boy bir odam qaysidir bir sabab bilan hayit kunlari qurbonlik qilmagan bo'lsa, nima qilishi kerak?

**Javob:** Bu holda bir qurbonlik qo'yining qiymatini kambag'allarga sadaqa qilishi kerak. Keyingi yillarga qoldirilmaydi.

**Savol:** Bir kishi Qurbon hayitida so'yish niyati bilan olgan hayvonini so'ymasa, qurbonlik kunlari o'tib ketsa nima qiladi?

**Javob:** Boy kishi bo'lsa, xohlasa o'zini, (ya'ni o'sha hayvonni), xohlasa qiymatini beradi, kambag'al bo'lsa, o'zini sadaqa qiladi.

**Savol:** Bir odam hayit kunlarida so'yish uchun atab olgan bir hayvonini hayit kunlarida so'ymasa nima qilishi kerak?

**Javob:** Bu holda boy kishi bo'lsa ham, kambag'al bo'lsa ham u hayvonni kambag'allarga sadaqa qilishi kerak.

### **QURBONLIKNING SO'YILISHI**

**Savol:** Qurbonlik qanday so'yiladi?

**Javob:** Qurbonlik qiblaga qarab yotqiziladi, keyin duo niyati bilan: «Mening namozim, ibodatlarim, yashashim va o'limim olamlarning Rabbisi bo'lgan Alloh uchundir. Uning sherigi yo'qdir». (An'om surasi, 162-163-oyatlar), oyati karimasi o'qilgandan keyin «Bismillahi Allohu akbar» deb so'yiladi. Qo'ldan kelsa qurbonlikni o'zi so'yishi kerak, kelmasa, munosib ko'rgan bir musulmonga vakolat bilan so'ydirish mumkin.

### **Qurbonlikning go'shti**

**Savol:** Qurbonlikning go'shti qanday taqsimlanadi?

**Javob:** Qurbonlik go'shtining hammasini kambag'alga sadaqa qilib berish yoki o'zi va bolalari uchun olib qolish joiz bo'lsada, maqbul bo'lgani qurbonlik go'shtini uchga bo'lib, bir qismini faqirlarga sadaqa qilib tarqatmoq, bir qismini boy bo'lsa ham qo'shnisi va yaqinlariga ikrom qilmoq, bir qismini ro'zg'ori uchun ayirmoqdir. Agar qurbonlik qiluvchi bolajon, serfarzand va moddiy ahvoli ham o'rtacha bo'lsa, go'shtning hammasini ularning yeyishi uchun olib qolishi mustahabdir.

**Savol:** Qurbonlik go'shtining musulmon bo'lmaganga berilishi joizmi?

**Javob:** Ha, zimmiy bo'lsa ham, harbiy bo'lsa ham musulmon bo'lmaganga ehson qilib berilishi joizdir.

**Savol:** Qurbonlik go'shtining ko'chirilishi joizmi?

**Javob:** Qurbonlikning so'yilgan joyidan boshqa bir joyga ko'chirilishi tanzihan makruhdur. Lekin kishining qarindoshlariga yoki yanada muxtojroq bo'lganlarga yuborishida zarar yo'qdir.

### **Yeyish mumkin bo'lmagan qismlar**

**Savol:** So'yilgan hayvonni yeyilishi mumkin bo'lmagan qismlari qaysilar?

**Javob:** Qurbonlik bo'lsa ham, bo'lmasa ham so'yilgan hayvonning yeyilishi mumkin bo'lmagan qismlari shulardir:

1. Oqqan qoni;
2. Erkaklik jinsiy olati (zakari);
3. Urg'ochilik jinsiy a'zosi;
4. Tuxumlari;
5. Siydik xaltasi;
6. G'uddasi;
7. O't pufagi .

### **Sherikchilik bilan qilingan qurbonlik go'shtining taqsimi**

**Savol:** Sherikchilik bilan qilingan qurbonlik go'shti qanday taqsimlanadi?

**Javob:** Tuya yoki qoramol kabi hayvonlar sherikchilik bilan so'yilganda, go'shti sheriklar orasida tortilib, teng bir shaklda taqsimlanishi kerak. Chamalab (taxminan) taqsimlash joiz emas. Chunki bu jinsning jins bilan o'zgarishi hukmida bo'lgani uchun ortiqchasi foiz bo'ladi. Lekin bosh, teri va oyoqlaridan bir narsalar go'shtga qo'shilsa jinsning jins xilofiga o'zgargani uchun chamalab taqsimlash joiz bo'ladi.

**Savol:** Bir oila a'zolari uchun so'yilgan sherikchilik qurbonligining go'shtini taqsimi kerakmi?

**Javob:** Yo'q, bir oila a'zolari uchun so'yilgan sherikchilik qurbonligining go'shtini taqsimlash kerak emas.

**Savol:** Kambag'al bir odam qurbonlik niyati bilan sotib olib so'ygan hayvonining go'shtini yeyishi mumkinmi?

**Javob:** Bu masalada ikki nuqtai nazar bor. Bir qarashga ko'ra yeyishi mumkin emas. Chunki unga qurbonlik vojib bo'lmagani holda, bunday qurbonlik olib so'yishi nazr hukmidadir. Boshqa bir qarashga ko'ra nazr haqida so'z yuritilmagani uchun faqat

qurbonlik niyati bilan sotib olingan jonliq nazrga utmasligi uchun yeiishida bir zarar io`qdir. Fatvo shu nuqtai nazarga ko`radir.

## **Qurbonlik terisi**

**Savol:** Qurbonlikning terisi nima qilinadi?

**Javob:** Kishi o`z qurbonligining terisini ishlatishi yoki o`zi foydalanadigan bir narsa bilan almashtirishi joiz bo`lsa ham, maqbul bo`lgani uni bir yo`qsilga (kambag`alga) sadaqa qilib berishdir. Qurbonlikning terisini sotish joiz bo`lmagani kabi uni qassob haqqi qilib berish ham joiz emasdir.

**Savol:** Qurbonlikning terisini muassasalarga berilishi mumkinmi?

**Javob:** Ha, qurbonlik terisini shaxslarga berilishi mumkin bo`lgani kabi, Islomga xizmat qiladigan muassasalarga ham berilishi mumkindir.

## **Qurbonlikning mustahablari**

**Savol:** Qurbonlikning mustahablari qaysilar?

**Javob:** Qurbonlik mustahablarining asosiylari shulardir:

1. Qurbonlik qilinadigan hayvonni bir muddat saqlab boqilishi;
2. Qurbonlik hayvonining bo`yniga taqinchoq kabi bezak turlaridan biror narsaningtaqilib qo`yilishi;
3. Qurbonlik jonlig`ining semiz bo`lishi;
4. So`yishdan oldin yoki keyin duo o`qilishi;
5. Qo`lidan kelsa sohibining o`zi so`yishi;
6. So`yilgandan keyin taqinchog`ini sadaqa qilinishi;
7. Qurbonlik so`yilishidan keyin ikki rak`at namoz o`qilishi;
8. Qurbonlik go`shtidan sohibining yeyishi;
9. Qurbonlik go`shtidan sadaqa qilinishi.

## **Qurbonlikning makruhlari**

**Savol:** Qurbonlikning makruhlari qaysilar?

**Javob:** Qurbonlikda makruh bo`lgan narsalarning asosiylari shulardir:

1. Qurbonlik hayvonining yungidan yoki sutidan foydalanishi;
2. Qurbonlik hayvonining almashtirilishi;
3. Qurbonlik hayvoniga minish yoki unda yuk tashish;
4. Qusuri makruh sanalgan hayvonning qurbonlik qilinishi;
5. Qurbonlikni kitob ahlidan biriga so`ydirilishi;
6. Sotib olingan qurbonlikka keyinchalik sherik bo`lish;
7. Qurbonlik go`shtini yoki terisini sotilishi;

8. Qurbonlik go'shtining bir joydan boshqa joyga ko'chirilishi;
9. Qurbonlik go'shtidan yoki terisidan qassob haqini berilishi.

## **QURBONLIK BILAN BOG'LIQ TURLI MASALALAR**

**Savol:** Qurbonlik nisobiga bog', bog'cha va dala kabi narsalarning o'zlari kiradimi yoki daromadlarimi?

**Javob:** Ko'pchilikning fikriga ko'ra bularning daromadlari, boshqa bir qarashga ko'ra o'zlari qurbonlik nisobiga kiradi.

**Savol:** Bir odamning uy sotib olish maqsadi bilan yiqqan pulidan qurbonlik qilishi kerakmi?

**Javob:** Ha, sahif bo'lgan qarashga ko'ra bir kishining uy sotib olish maqsadi bilan yiqqan pulidan qurbonlik qilishi kerak.

**Savol:** Bir kishining bировga qarzi bo'lsayu, olish muddati yetmagan bo'lsa va nisob miqdori qadar boshqa moli bo'lmasa, qurbonlik so'yish uchun boshqa bировdan qarz olishi kerakmi?

**Javob:** Yo'q, bu holda qurbonlik sotib olish uchun qarz olishi shart bo'lmaganidek qarzini olgandan keyin ham qurbonlikning evazini (haqini) sadaqa qilishi shart emas.

**Savol:** Bir ayolning nisob miqdori qadar oltini bo'lib, boshqa moli bo'lmasa qurbonlik so'yishi kerakmi?

**Javob:** Ha, bir ayolning oltin taqinchog'i bo'lsa ham, bo'lmasa ham, lekin boshqa moli bo'lmasada, nisob miqdoriga yetadigan qadar oltini bor bo'lsa, qurbonlik so'yishi kerak.

**Savol:** Qurbonlik qilish majburiyatida bo'lgan kishi qurbonlikni xotini nomidan so'yishi mumkinmi?

**Javob:** Yo'q, o'zining qurbonligini xotini nomidan so'yolmaydi. Chunki qurbonlik so'yish o'ziga vojib bo'lgandir. Lekin o'zining qurbonligiga qo'shib xotini uchun ham qurbonlik qilishi mumkin.

**Savol:** Qurbonlik so'yish o'rniga haqini bir faqirga yoki xayriya tashkilotlariga berilishi joizmi?

**Javob:** Yo'q, qurbonlik so'yish o'rniga haqini bir faqirga yoki biror tashkilotga berilishi joiz emas. Chunki qurbonlik qilish majburiyati faqat Alloh rizosi uchun so'yilsa zimmadan soqit bo'ladi.

**Savol:** Qurbonlik fe'lan vojib bo'lgandan keyin molning yo'q bo'lishi bilan qurbonlik so'yish majburiyati ketadimi?

**Javob:** Yo'q, bunday bir holatda qurbonlik qilishi majburiyati soqit bo'lmaydi.

**Savol:** Qurbonlik so'yilgandan keyin butunlay talaf (yo'q bo'lib ketsa) qurbonlik majburiyati ketadimi?

**Javob:** Ha, bu holatda qurbonlik so'yish majburiyati qolmaydi.

**Savol:** Uy yoki mashinaning hashamatli va qimmatbaholiligi qurbonlik nisobiga kiradimi?

**Javob:** Yo'q, uy va mashina asliy ehtiyojlardan bo'lganligi uchun har qanday holatda ham ular qurbonlik nisobiga kirmaydi. Lekin musulmon har doim dabdaba va isrofdan saqlanishi kerak.

**Savol:** Bir kishi ruxsatsiz xotini yoki to'ng'ich o'g'li nomidan qurbonlik so'yishi joizmi?

**Javob:** Yo'q, bu holda xotini yoki katta o'g'li nomidan qurbonlik so'yishi joiz emas. Biroq Imom Abu Yusufga ko'ra kishi xotini yoki qaramog'ida bo'lgan to'ng'ich o'g'li nomidan istisno tarzida qurbonlik so'yishi joizdir.

**Savol:** Bir odam ruxsatsiz o'rtog'ining sotib olgan qurbonligini so'ysa, egasidan soqit bo'ladimi?

**Javob:** Ha, egasidan soqit bo'ladi.

**Savol:** Ikki kishi sahvan (adashib) bir-birlarining qurbonliklarini almashtirib so'yishsa, qurbonliklari o'tadimi?

**Javob:** Ha, har ikkisining qurbonligi o'tadi. Har biri so'yilgan shaklida o'zining qurbonligini oladi.

**Savol:** Boy bo'lgan bir odam birdan ko'p qo'ylarni qurbonlik qilsa, hammasi vojib qurbonlik o'rniga o'tadimi?

**Javob:** Yo'q, bu vaziyatda bir donasi vojib o'rniga, qolgani nafl qurbonlik o'rniga o'tadi.

**Savol:** Boy bir odam o'zi uchun bir qoramol qurbonlik qilsa, yettidan biri vojib qurbonlik hisobiga o'tadimi yoki butunimi?

**Javob:** Bu holda butun qoramol vojib qurbonlik hisobiga o'tadi.

**Savol:** Boy bir odam Qurbon hayitda o'nta qurbonlik so'yishga nazr qilsa, hammasini so'yishi kerakmi?

**Javob:** Ha, sahih qarashga ko'ra nazr qilingan miqdorning hammasini so'yishi kerak. Lekin ba'zi olimlarga ko'ra ikkita so'yish yetarlidir.

**Savol:** Uy hayvoni bilan yovvoyi hayvonning qo'shilishidan tug'ilgan bir hayvon qurbonlik qilinishi mumkinmi?

**Javob:** Bu holda u hayvonning onasiga e'tibor qilinadi. Onasi xonaki bo'lsa, bolasi ham xonaki hisoblanadi va qurbonlik qilinishi mumkin. Onasi yovvoyi bo'lsa, bolasi ham yovvoyi hisoblanib, qurbonlik qilinmaydi.

**Savol:** Xonakilashgan yovvoyi hayvon qurbonlik qilinishi mumkinmi?

**Javob:** Yo'q, xonakilashgan yovvoyi hayvon qurbonlik qilinishi mumkin emas. Biroq yovvoyilashgan xonaki hayvon qurbonlik qilinishi mumkin.

**Savol:** Qurbonlikning qabul bo'lishi uchun hayvon kishining mulkida (qo'l ostida, tasarrufida) bo'lishi kerakmi?

**Javob:** Ha, qurbonlik qabul bo'lishi uchun hayvon kishining mulkida bo'lishi kerak. Masalan, kishi yonida omonat bo'lib turgan bir hayvonni o'zining nomidan qurbonlik qila olmaydi.

**Savol:** Bir odam boshqasiga «Mening nomimdan bir jonliq sotib ol va qurbonlik qilib so'y» desa, u kishining o'z mulkida bo'lgan bir hayvonni uning nomiga qurbonlik qilib so'yishi joizmi?

**Javob:** Yo'q, joiz emas. Chunki bir shaxs ham oluvchi, ham sotuvchi bo'la olmasligidan hayvon bunday holatda nomidan qurbon so'yiladigan kishining mulkiga o'tmagan hisoblanadi.

**Savol:** Nasiyaga yoki kreditga qurbonlik olib so'yish joizmi?

**Javob:** Ha, qurbonlik vojib bo'lgan kishi bu holda qurbonlik sotib olishi joizdir. Chunki nasiyaga yoki kreditga olingan qurbonlik ham avvaldan olingan qurbonlik kabi kishining mulki hisoblangan bo'ladi.

**Savol:** Qishlik va yozlik uyi bo'lgan, lekin nisob miqdoriga yetadigan moli bo'lmagan odamning qurbonlik so'yishi vojib bo'ladimi?

**Javob:** Yo'q, bu vaziyatdagi bir odamning qurbonlik so'yishi vojib emas.

**Savol:** O'n kishi birgalikda o'nta hayvonni olib har biri bittadan qurbonlik qilishi joizmi?

**Javob:** Ha, bu holda go'shtlari tarozi bilan taqsimlanadi.

**Savol:** Voris o'lgan shaxs (marhumning) vasiyat qilmasdan qoldirgan molidan uning uchun qurbonlik qilsa, o'zi ham yeyishi mumkinmi?

**Javob:** Vasiyati bo'lmagan holda voris so'ygan qurbonligidan yeyishda biror zarar yo'q.

**Savol:** Kambag'al bir odam qurbonlik niyati bilan tovuq yoki xo'roz so'yishi mumkinmi?

**Javob:** Yo'q, kambag'al bir odamning qurbonlik niyati bilan tovuq yoki xo'roz so'yishi tahriman makruhdir. Chunki bunda majusiylarga o'xshashlik bordir.



**Savol:** Qurbonlik qabul bo'lishi uchun niyat qilish shartmi?

**Javob:** Ha, qurbonlik qabul bo'lishi uchun niyat qilish shart. Chunki hayvon ibodat niyati bilan ham, faqat go'shti uchun ham so'yilishi mumkin.

**Savol:** Biror zotni kutib olish uchun so'yilgan qurbonlikning go'shti yeyiladimi?

**Javob:** Alloh rizosi bo'lmasdan faqat biror zotning kelishini qutlash niyati bilan so'yilgan qurbonlikning go'shti, hatto «bismilloh» aytilgan bo'lsa ham yeyilmaydi. Biroq u odamga yoki boshqalarga ikrom qilish niyati bilan so'yilsa joizdir va go'shti yeyiladi.

**Savol:** O'lik nomiga (marhum uchun) Arafa kuni qurbonlik so'yilishi mumkinmi?

**Javob:** Agar qurbonlikni niyat qilsa, Arafa kuni so'yish mumkin emas. Chunki qurbonlik faqat hayit kunlarida so'yiladi. Biroq sadaqa niyati bilan so'yishni xohlasa Arafa kuni ham so'yishi mumkin.

**Savol:** Tuyani niyat qilgan, lekin topolmagan bir odam o'rniga yettita qo'y yoki echki so'yishi mumkinmi?

**Javob:** Ha, bunaqa vaziyatda yettita qo'y yoki echki so'yishi mumkin.

**Savol:** Kambag'al bir odamning qurbonlik niyati bilan sotib olgan hayvoni qurbonlikka atalgan bo'ladimi?

**Javob:** Ha, sahih bo'lgan qarashga ko'ra kambag'alning bu niyat bilan sotib olgan hayvoni qurbonlik uchun atalgan bo'ladi.

**Savol:** Boy bir odam «Shu ishima amalga oshsa Qurbon hayiti kunlarida bir qurbonlik so'yaman», desa, Hayit kunlarida nechta qurbonlik so'yishi kerak.

**Javob:** Agar Qurbon hayitdan oldin shunday bir nazr qilgan bo'lsa, yoki Qurbon hayiti kunlarida aytib, odatda so'yishi kerak bo'lgan qurbonlikdan boshqa qurbonlikni nazarda tutgan bo'lsa, ikkita so'yishi kerak. Biri nazr qilgani uchun, boshqasi boy bo'lgani uchun. Biroq Qurbon hayiti kunlarida bunday bir nazr qilgan bo'lsa-da, aslida boy bo'lganligidan so'yishi vojib bo'lgan qurbonlikni nazarda tutgan bo'lsa, bitta so'yishi yetarlidir.

**Savol:** Qusurli bir hayvon sotib olgan kishi qusuri yaxshilangandan so'ng uni qurbonlik qilib so'yishi joizmi?

**Javob:** Ha, joizdir. Chunki muhimi so'yilayotgan vaqtda hayvonning qusursiz bo'lishidir.

**Savol:** Go'shtining hammasi sadaqa qilinishi kerak bo'lgan qurbonliklar qaysilar.

**Javob:** Go'shtining hammasi sadaqa qilinishi kerak bo'lgan qurbonliklar shulardir:

1. Nazr qilingan qurbonlik;
2. Hayit kunlarida so'yilmagan qurbonlik;
3. O'likning (marhumning) vasiyati bilan so'yilgan qurbonlik;
4. Sheriklaridan birining qazoga niyat qilgan qurbonligi;

5. Kambagʻalning sotib olgan qurbonligi (ikki qarashdan biriga koʻra);
6. Qurbonlikning tuqqan bolasi.

**Savol:** Boʻgʻoz boʻlgan hayvonning qurbonlik qilinishida biror zarar bormi?

**Javob:** Boʻgʻoz boʻlgan hayvonning qurbonlik qilinishida biror zarar yoʻq. Lekin tugʻishi yaqinlashgan bir hayvonning qurbonlik qilinishi makruhdur.

**Savol:** Makkada muqim boʻlgan hoji (haj bilan bogʻliq qurbonlikdan tashqari) boyligi sababli, Qurbon hayiti munosabati bilan qurbonlik soʻyishi kerakmi?

**Javob:** Sahih rivoyatga koʻra soʻyishi kerak. Boshqa bir qarashga koʻra hoji muqim boʻlsa ham, boyligi sababli qurbonlik soʻyishi kerak emas.

**Savol:** Yoshligida biror sabab bilan dumbasining koʻp qismi uzilib qolgan qoʻylarning qurbonlik qilinishida moneʻlik bormi?

**Javob:** Yoʻq, kichik yoshda biror sabab bilan dumbasi uzilib qolgan qoʻylarning qurbonlik qilinishida moneʻlik yoʻqdir. Chunki bu nuqson hisoblanmaydi.

**Savol:** Elektr asbob bilan hayvon soʻyilishi joizmi?

**Javob:** Oddiy soʻyilgan har bir hayvon uchun alohida-alohida «Bismilloh» aytish kerak. Biroq ikki yoki ortiqroq hayvonlarni ustma-ust yotqizib, bir marta «Bismilloh» deb oʻtkir qilich (tigʻ) bilan birdan soʻyilishi joiz boʻlganiga koʻra birdan koʻp hayvonni qatorga tizib kesadigan biror jihoz bilan avtomatik ravishda birdan soʻyilishi joiz boʻlishi mumkin. Bunaqa vaziyatda avtomatning har bor ishlashida «Bismilloh» boshidan aytilishi kerak. Biroq bu holda hayvonning joni chiqmasidan boshi uzilayotgan yoki hayvon ensasidan soʻyilayotgan boʻlsa makruh boʻladi.

**Savol:** Hazrati Iysoni Allohning oʻgʻli deb ishongan xristianlar va Hazrati Uzayrni Allohning oʻgʻli deb ishongan yahudiylarning soʻyganlari yeyiladimi?

**Javob:** Baʼzi olimlar «bu holatdagi xristianlar va yahudiylarning soʻyganlari yeyilmaydi», desalar ham, sahih qarashga koʻra yeyiladi.

## **Oʻzgacha qurbonlik turlari**

**Savol:** Qurbon hayiti kunlarida soʻyiladigan qurbonlikdan tashqari yana qanday qurbonlik turlari bor?

**Javob:** Qurbon hayiti kunlarida soʻyiladigan qurbonlikdan tashqari nazr, shukr, oʻlik (marhum nomidan), aqiqa va hady (haj asnosida soʻyiladigan) qurbonlik turlari ham bor.

## **Nazr qurbonligi**

**Savol:** Nazr qurbonligi (atalgan qurbonlik) nimadir?

**Javob:** Nazr qurbonligi, biror ahdu paymon natijasida so'yiladigan qurbonlik. Masalan, bir kishi «Shu ishimi bitsa, Alloh rizosi uchun bir qurbonlik so'yaman» desa, ishi bitgan vaqtda bir qurbonlik so'yishi vojib bo'ladi.

**Savol:** Nazr qurbonligi qachon so'yiladi?

**Javob:** Nazr qurbonligi har doim so'yilishi mumkin. Jonliq hayit kunlarida so'yilishi shart emas. Biroq kishining istagi amalga oshgandan keyin qurbonlik so'yishni iloji boricha kechiktirmaslik kerak.

**Savol:** Kishi nazr qilgan qurbonligining go'shtidan yeyishi mumkinmi?

**Javob:** Kishi nazr qilgan qurbonligining go'shtidan yeya olmagani kabi ayoli, onasi, otasi, buvisi, buvasi, bolasi va nevaralari ham yeya olmaydi. Uning hammasi kambag'allarga sadaqa qilinishi kerak.

**Savol:** Nazr qurbonligining durust bo'lishi uchun kerakli shartlar qaysilar?

**Javob:** Nazr qurbonligining durust bo'lishi uchun asosiy shartlari shulardir:

1. Nazr qurbonligining turi qurbonlik bo'la oladigan hayvonlardan bo'lishi kerak. Bir odam «xo'roz yoki tovuqni qurbonlik qilaman», desa bu durust bo'lmaydi, chunki xo'roz va tovuq qurbonlik bo'la oladigan hayvon turidan emas. Lekin bir tovuq yoki xo'roz go'shtini sadaqa qilishni nazr qilishi mumkin. Bu holda nazrning turi so'yilishidan sadaqaga aylanadi.
2. Nazr (atalgan) qurbonlik nazr qiluvchining molidan ko'p bo'lmasligi kerak. Nazr qiluvchining qurbonlik qila oladigan darajada moli yoki oladigan imkoniyati bo'lmasa, qilgan nazr qurbonligi maqsadga muvofiq bo'lmaydi.
3. Qurbonlik faqat Alloh rizosi uchun atalgan bo'lishi kerak. Masalan, bir kimsa «kasalim yaxshilansa falon maqbaraga qurbonlik qilaman» desa, bu qurbonlik durust bo'lmaydi. Chunki bu turdagi qurbonlik Alloh rizosi uchun nazr qilingan qurbonlik hisoblanmaydi.
4. Nazr qilingan qurbonlik zotan o'ziga vojib bo'lgan qurbonlik bo'lmasligi kerak. Masalan, boy bir kimsaning o'ziga vojib bo'lgan qurbonlikni nazr qilgani kabi .

## **Nazr qilingan qurbonlik bilan bog'liq turli masalalar**

**Savol:** Belgilangan bir kunda so'yilishi nazr qilingan qurbonlik, o'sha kunda so'yilishi kerakmi?

**Javob:** Muvofiq bo'lgani, qurbonlikni belgilangan kunda so'yilishidir. So'yilmagan taqdirda, boshqa bir kun qazo qilinishida xavf yo'q.

**Savol:** Shartga bog'liq holda qurbonlik qilishni nazr qilgan kishi, u shartning yuzaga chiqishidan oldin qurbonlik so'yishi mumkinmi?

**Javob:** Shartga bog'liq holda qurbonlik qilishni nazr qilgan kishi, u shart bajarilmasidan

avval qurbonlik so'ya olmaydi. Agar so'ysa, shart bajarilganidan keyin yana so'yishi kerak.

**Savol:** Bir kimsa mavjud bo'lishini xohlamagan bir ish uchun qurbonlik qilishni nazr qilsa va xohlamagan ishi amalga ohsa, qurbonlik so'yishi kerakmi?

**Javob:** Bu holatda qurbonlikni nazr qilgan kishi xohlasa qurbonlikni so'yadi, xohlasa, kafforatini beradi. Masalan, bir kimsaning «yolg'on gapirsam qurbonlik so'yaman», deyishi kabi.

**Savol:** Nazr qilingan qurbonlik so'yilgandan keyin butunlay talaf (yo'q) bo'lsa, qurbonlik majburiyati ketadimi?

**Javob:** Ha, bu holda qurbonlik majburiyati ketadi.

**Savol:** Bir kimsa o'nta qurbonlik nazr qilsa hammasini so'yishi kerakmi?

**Javob:** Ha, sahih bo'lgan qarashga ko'ra hammasini so'yishi kerak. Ba'zi olimlarga ko'ra bu holda ikkita qurbonlik so'yishi yetarlidir.

**Savol:** Nazr qilingan qurbonlik go'shtini zimmiyga berishi joizmi?

**Javob:** Yo'q, nazr qilingan qurbonlik go'shtini sahih bo'lgan qarashga ko'ra zimmiyga berish joiz emas.

**Savol:** Nazr qilingan qurbonlikning terisi nima qilinadi?

**Javob:** Nazr qilingan qurbonlikning terisi ham go'shti kabi faqirlarga beriladi.

**Savol:** Bir kimsa «Alloh uchun bolamni qurbonlik qilaman», desa nima qilishi kerak?

**Javob:** Imomi A'zam va Imomi Muhammadga ko'ra bu holda u kimsa bir qo'y yoki echki so'yishi kerak. Abu Yusufga ko'ra hech narsa lozim emas.

**Savol:** Bir kimsa o'zi va oila a'zolarining yeyishi sharti bilan qurbonlik nazr qilsa, nazr qilgan qurbonlikdan yeyishi mumkinmi?

**Javob:** Yo'q, bir kimsa bunday shart bilan qurbonlik nazr qilgan bo'lsa ham o'zi va oila a'zolari nazr qilingan qurbonlikdan yeyishi joiz emas. Lekin nazr qilingan qurbonlikni so'yishi kerak.

**Savol:** Kishi qiymatini faqirlarga berish sharti bilan atalgan qurbonlikdan bir miqdorini o'z bolalariga yedirishi mumkinmi?

**Javob:** Yo'q, qiymatini faqirlarga bersa ham nazr qilingan qurbonlikdan bolalariga yedira olmaydi. Agar joiz bo'lmasa ham yedirgan bo'lsa, yedirgan qiymatini faqirlarga berishi kerak.

## **Shukr qurbonligi**

**Savol:** Shukr qurbonligi deb nimaga aytiladi?

**Javob:** Shukr qurbonligi deb bir ne'matga shukrona sifatida so'yilgan qurbonlikka aytiladi. Masalan, bir kishi uy yoki mashina kabi bir molga sohib bo'lganida so'ygan qurbonligidir.

**Savol:** Qurbonlikdan egasi ham yeyishi mumkinmi?

**Javob:** Ha, shukr qurbonligidan egasi va oila a'zolarining yeyishi mumkin. Shuningdek, faqir bo'lsin, boy bo'lsin, xohlagan kishiga tarqatishi mumkin.

## **O'lik (marhum nomidan) qurbonlik**

**Savol:** O'lik qurbonligi deb nimaga aytiladi?

**Javob:** Savobini o'lgan bir kimsaning ruhiga bag'ishlash uchun so'yilgan qurbonlikka aytiladi.

**Savol:** O'lik qurbonligi necha qismga bo'linadi?

**Javob:** O'lik qurbonligi ikki qismga bo'linadi:

1 - vasiyatga binoan so'yilgan: bir kimsaning tirikligida qilgan vasiyatiga binoan o'lganidan keyin vorislari tomonidan molining uchdan biri asosida so'yilgan qurbonlikdir. Qurbon hayiti kunlarida so'yilishi kerak bo'lgan bu qurbonlik go'shtidan o'lganlarning vorislari va boylar yeyishlari mumkin emas. Uning hammasi yo'qsillarga tarqatilishi kerak.

2 - vasiyati bo'lmasdan so'yilgan: o'lgan kishi vasiyat qilmagan bo'lsa, merosxo'rlari uning nomiga (ya'ni savobini unga atab) qurbonlik so'yishlari shart emas. Biroq bir kimsa savobini o'lgan onasiga, dadasiga yoki boshqa yaqinlariga bag'ishlash uchun faqirlarga sadaqa bergani kabi, qurbonlik ham so'yishi mumkin. Har qanday vaqtda so'yilishi joiz bo'lsa ham Qurbon hayiti kunlarida so'yilishi afzal va savobliroq bo'lgan bu qurbonlik go'shtini faqirlarga sadaqa qilish mumkin. Shuningdek, undan egasi, oila a'zolari va boylar ham yeyishlari mumkin.

## **Aqiqa qurbonligi**

**Savol:** Aqiqa deb nimaga aytiladi?

**Javob:** Aqiqa, lug'atda yangi tug'ilgan chaqaloq boshidagi tukka, istilohda esa yangi tug'ilgan o'g'il yoki qiz bola uchun Buyuk Allohga shukr qilish uchun so'yilgan qurbonlikka aytiladi.

**Savol:** Aqiqa qurbonligining hukmi nima?

**Javob:** Aqiqa qurbonligini so'yish mubohdir.

**Savol:** Aqiqa qurbonligi qachon so'yiladi?

**Javob:** Aqiqa qurbonligi bolaning tug'ilgan kunidan voyaga yetgunicha so'yilishi mumkin. Lekin yettinchi kuni so'yilishi fazilatliroqdir. Tug'ilganidan keyin yettinchi kuni bolaga ism qo'yilib, sochi olinadi, kesilgan soch og'irligi miqdoricha kambag'allarga oltin yoki kumush sadaqa qilib berish mustahabdir.

**Savol:** Aqiqa qurbonligining go'shtidan sohibi yeyishi mumkinmi?

**Javob:** Aqiqa qurbonligining go'shtidan sohibi yeya olishi boshqalarga yedirishi va sadaqa qilib tarqatishi ham mumkin.

## **Hadyi qurbonligi**

**Savol:** Hadyi qurbonligi deb nimaga aytiladi?

**Javob:** Hajga bog'liq bo'lib, Makkani o'rab olgan Haram mintaqasida so'yilgan qurbonlikka aytiladi.

**Savol:** Vojib bo'lgan hadyining muhimlari qaysilar?

**Javob:** Vojib bo'lgan hadyining muhimlari shulardir: 1. shukr hadiyisi, 2. jazo hadiyisi.

**Savol:** Shukr hadiyisi deb nimaga aytiladi?

**Javob:** Tamattu' yoki qiron hajiga niyat qilganlarning so'yishlari vojib bo'lgan qurbonlikka aytiladi?

**Savol:** Jazo hadiyisi deb nimaga aytiladi?

**Javob:** Sababsiz haj vojiblaridan birining tark qilinishi yoki vaqtida qilinmaganligi yoki ehrom ta'qiqlaridan birining buzilishi sababli vojib bo'lgan qurbonlikka aytiladi.

**Savol:** Hadyi qurbonligi qaerda so'yiladi?

**Javob:** Hadyi qurbonligi Haram o'lkasi hududida so'yiladi. Biroq shukr hadyini Minoda so'yilishi sunnatdir.

**Savol:** Hadyi qurbonligi qachon so'yiladi?

**Javob:** Jazo hadiyisi har doim so'yilishi mumkin. Shukr hadyisining hayit kunlarida so'yilishi vojibdir. Abu Yusuf va Imomi Muhammadga ko'ra shukr hadyini hayit kunlarida so'yilishi vojib emas, sunnatdir.

**Savol:** Hadyi qurbonligidan egasi ham yeyishi joizmi?

**Javob:** Shukr hadyisidan egasi yeyishi joiz, lekin jazo hadyisidan yeyishi joiz emas.

**Savol:** Nazr qilingan, shukr, o'lik, aqiqa va hadyi qurbonliklari uchun so'yiladigan hayvonlarda qanday shartlar mavjud bo'lishi kerak?

**Javob:** Hayvonning jinsi, yoshi, nuqsonli va nuqsonsiz bo'lishi kabi qurbonlikda bo'ladigan shartlarning hammasi bularda ham bo'lishi kerak.

## **HAYVON (JONLIQ)NING SO'YILISHI**

**Savol:** Shar'iy so'yilish necha xil bo'ladi?

**Javob:** Shar'ii so'yilish ikki xil bo'lib, iztirorii (zarur holatda) va ixtiyoriydir.

**Savol:** Iztiroriy so'yilish deb nimaga aytiladi?

**Javob:** So'yiladigan bir hayvonni so'yishdan ojiz qolgan holatda duch kelgan joyiga biror jarohat yetkazib, qonini to'kib o'ldirishga aytiladi. Quduqqa tushib ketgan va chiqarishning imkoni bo'lmagan, qochib ketib tutqich bermaydigan yoki tajovuzkor hayvonlarning so'yilishi shu turga kiradi.

**Savol:** Ixtiyoriy so'yilish deb nimaga aytiladi?

**Javob:** Hayvonning jag'iga ulangan joyi bilan ko'kragiga ulangan joyi orasidagi har qanday bir joydan qoidaga muvofiq holda so'yilishga aytiladi.

## **So'yishdagi kerakli shartlar**

**Savol:** So'yishda lozim bo'lgan shartlar qaysilar?

**Javob:** So'yishda lozim bo'lgan shartlar shulardir:

- 1 - So'ygan kishining musulmon yoki kitob ahli (yahudiy yoki xristian) bo'lishi, musulmonning xotin yoki erkak, kitob ahlining zimmiy yoki harbiy bo'lishining farqi yo'q;
- 2 - «Bismilloh» aytilgan bo'lishi;
- 3 - Bo'ynidagi kesilishi kerak bo'lgan tomirlarning kesilgan bo'lishi.

Biroq bu shart ixtiyoriy so'yilishda bordir; iztiroriy so'yilishda o'ldiruvchining jarohat yetkazishi kifoya.

**Savol:** So'yilish asnosida xristianlarning Masih otini, yahudiylarning Uzayr otini eslaganlari bilinsa, so'yganlari yeyiladimi?

**Javob:** Yo'q, bunday holatda so'yganlari yeyilmaydi.

**Savol:** «Bismilloh» qaysi holatda aytilmasa so'yilgan hayvonning go'shti yeyilmaydi?

**Javob:** «Bismilloh» qasddan tark qilinsa so'yilgan hayvonning go'shti yeyilmaydi. Lekin unutilib yoki shart ekanligini bilmasdan tark qilinsa yeyiladi. So'ygan musulmon bo'lsa ham, kitob ahli bo'lsa ham hukm bir xildir.

**Savol:** «Bismilloh»ning aytilgani yoki aytilmagani bilinmasa yeyiladimi?

**Javob:** Ha, yeyiladi.

**Savol:** Bir kishi bir necha hayvonni birin-ketin soʻyadigan boʻlsa, har biri uchun alohida «Bismilloh» aytishi kerakmi?

**Javob:** Ha, bu holatda har biri uchun alohida «Bismilloh» aytishi kerak. Biroq bir-birini ustiga yotqizib, hammasi birdan soʻyiladigan boʻlsa, bir marta «Bismilloh» aytish kifoya.

**Savol:** «Bismilloh» aytgandan keyin pichoqni almashtirish paytida «Bismilloh»ni qayta aytish kerakmi?

**Javob:** Yoʻq, pichoqning almashishi bilan «Bismilloh»ni qayta aytish kerakmas, lekin hayvon almashishi bilan «Bismilloh»ni qaytadan aytish kerak.

**Savol:** Boʻyinda qanday tomirlar bor?

**Javob:** Boʻyinda ovqat quvuri, havo quvuri va ikki shohtomir boʻlib, toʻrt tomir bor.

**Savol:** Bulardan kamida nechtasini kesish kerak?

**Javob:** Imomi Aʼzamga koʻra kamida uchtasini (ovqat va havo quvurlari bilan shoh tomirlardan birini yoki ikki shohtomir bilan havo yoki ovqat quvurlaridan birini) kesish kerak. Abu Yusufga koʻra ovqat quvuri bilan havo quvurini va shohtomirlardan birining kesilishi shartdir.

**Savol:** Soʻyishda musulmon uchun «Bismilloh»ni aytish va tomirlarni kesish shart boʻlganidek kitob ahli uchun ham shartmi?

**Javob:** Ha, soʻyishda «Bismilloh»ni aytish va tomirlarni kesish musulmon uchun shart boʻlgani kabi kitob ahli uchun ham shart.

**Savol:** Soʻyilgan bir hayvonnig qornidan chiqqan bolasi yeyiladimi?

**Javob:** Imomi Aʼzamga koʻra soʻyilgan hayvonning qornidan chiqqan bolasining goʻshti yeyilmaydi. Chunki onasining soʻyilishi bolasining soʻyilishi hukmiga oʻtmaydi. Biroq Abu Yusuf va Imomi Muhammadga koʻra bolasining aʼzolari paydo boʻlgan boʻlsa, soʻyilgan onasi qatori uning ham goʻshti yeyiladi. Chunki bola onasining bir parchasi hukmidadir.

**Savol:** Junub va hayz koʻrganning qurbonlik soʻyishi joizmi?

**Javob:** Ha, junub va hayz koʻrganning qurbonlik soʻyishi joizdir.

**Savol:** Bolaning qurbonlik soʻyishi joizmi?

**Javob:** «Bismilloh» aytishning kerakligini tushunish va lozim shartlarni bajarish bilan bolaning qurbonlik soʻyishi joizdir.



**Savol:** So'yishda kekirdak suyagining bosh qismida qolishining hukmi nima?

**Javob:** Kekirdak suyagining bosh qismida qolishi sahiih bo'lgan qarashga ko'ra sunnatdir.

**Savol:** So'yilgan hayvondan qon oqishi yoki hayvonning harakat qilishi kerakmi?

**Javob:** So'yilgan hayvonning tirik ekani bilinmasa qonning oqishi yoki hayvonning harakat qilishi shart emas. Biroq hayvonning tirik ekani bilinsa bu holda qonning oqishi, hayvonning harakat qilishi keraklidir.

### **So'yishdagi mustahablar**

**Savol:** So'yishdagi mustahablar qaysilar?

**Javob:** So'yishdagi mustahablarning asosiylari shulardir:

1. Kunduz kuni so'yilishi;
2. So'yayotgan qassobning qiblaga yuzlanishi;
3. So'yilayotgan hayvonning qiblaga qaratilishi;
4. Pichoqning o'tkir bo'lishi;
5. Hayvonga yumshoqlik bilan muomala qilinishi;
6. Qo'y, echki va qoramolning chap yoniga yotqizilishi, tuyaning o'ng tizzasi bog'lanib oyoqda so'yilishi;
7. Hayvonning ensasidan emas, tomoq tarafdan so'yilishi;
8. Tomirlarining butunlay kesilishi;
9. Tomirlarining tez kesilishi;
10. Qo'y, echki va qoramolning jag` tagidan, tuyaning bo'ynidan so'yilishi;
11. Pichoqning bo'yindagi qovurg'a iligiga qadar kesib bormasligi;
12. Kekirdak suyagining hayvonning bosh tarafida qolishi;
13. Hayvonning joni to'liq chiqqanidan keyin terisining shilinishi.

### **So'yishdagi makruhlar**

**Savol:** So'yishdagi makruhlar qaysilar?

**Javob:** So'yishdagi makruhlarning asosiylari shulardir:

1. Kechqurun so'yilishi;
2. Oyoqlaridan sudralib so'yiladigan joyga olib kelinishi;
3. Qassobning qibladan boshqa bir tarafga qarab so'yishi;
4. So'yilayotgan hayvonning qibladan boshqa bir tarafga qaratilishi;
5. Hayvonga yumshoq muomala qilishga sa'y-harakat qilinmasligi;
6. Butunlay tomirlarning kesilmasligi;
7. Tomirlarning sekin kesilishi;
8. O'tmas pichoq ishlatilishi;
9. Kekirdak suyagining gavda qismida qolishi;
10. Hayvonning ko'zi oldida pichoqning qayralishi;

11. Pichoqni bo'yindagi qovurg'a iligiga yetkazilishi;
12. Hayvon hali o'lim talvasasidayoq shilishni boshlanishi;
13. Hayvonning ensasidan so'yilishi.

## **HAYITNING JAMIYAT HAYOTIDAGI O'RNI**

**Savol:** Bayram (hayit) nimadir?

**Javob:** Bayram xursandchilik va sevinch kuni degani.

**Savol:** Bayramning jamiyat hayotidagi o'rni qanday?

**Javob:** Bayramning jamiyat hayotida afzal jihatlari bor. Zero, bayramlar musulmonlarni bir-biriga yaqinlashtiradigan, birodarlik tuyg'ularini oshiradigan, xafachiliklarni yo'qotadigan muhim kunlardir. Jamoat holatida o'qiladigan bayram namozlari birlik va barobarlikning eng go'zal namunasi. Bayram kunlarida ota-onamizni ziyorat qilib, qo'llarini o'pib, xayrli duolarini olishimiz kerak. Qarindosh, do'st va qo'shnilarimiz bilan bayramlashish va tabriklashish orqali aloqalarimizni kuchaytirishimiz lozim. Uchraganga salom berib, bayram bilan tabriklashimiz, kasallarni ziyorat qilib, shifo tilashimiz kerak. Atrofimizdagi faqirlarga, yetim-esirlarga yordam qo'limizni cho'zib, ularga bayram sevinchini sezdirishimiz kerak. O'liklarimiz uchun duo qilib, Qur'on o'qishimiz kerak. Bolalarga sovg'alar berib, ularni xursand qilishimiz kerak. Bularning barchasi jamiyatda o'zaro sevgi va hurmat, yordamlashish va birdamlikni hosil qiluvchi go'zal harakatlardir.

## **Tashriq takbirlari**

**Savol:** Tashriq takbirlari qachon kerak bo'ladi?

**Javob:** Tashriq takbirlari Qurbon hayitning Arafa kuni bomdod namozidan e'tiboran boshlanib bayramning to'rtinchi kuni asr namozigacha davom etadi. Jami yigirma uch (23) vaqt bo'lgan farz namozlaridan keyin: (Allohu akbar, Allohu akbar, La ilaha illallohu vallohu akbar, Allohu akbar va lillahil hamd) deb takbir aytiladi. Bunga «Tashriq takbirlari» deyiladi.

**Savol:** Tashriq takbirlarining hukmi nima?

**Javob:** Tashriq takbirlarining aytilishi vojib.

**Savol:** Tashriq takbirlari kimga vojib?

**Javob:** Farz namozini o'qishga majbur bo'lgan har bir kishiga tashriq takbirlarini aytish vojib. Bu xususda yolg'iz namoz o'quvchi va imomga ergashuvchi musofir va muqim, erkak bilan xotin orasida farq yo'q.

**Savol:** Bu yigirma uch vaqtdan qazo bo'lgan namozlarning ham orqasidan tashriq takbirlari aytiladimi?

**Javob:** Ha, bu yigirma uch vaqt namozdan qay biri qazo bo'lib, tashriq kunlari qazosi o'qilsa orqasidan tashriq takbirlari aytiladi. Keyinroq (bir necha kun yo yillar o'tib) qazosi o'qilsa, tashriq takbirlari aytilmaydi.

## Hayit namozi

**Savol:** Hayit namozi qachondan beri o'qiladi?

**Javob:** Hayit namozi hijratning ikkinchi yilidan o'qila boshlangan. Shar'iyligi kitob, sunnat va ijmo' bilan sobitdir.

**Savol:** Hayit namozining hukmi nimadir?

**Javob:** Hayit namozining hukmi vojibdir.

**Savol:** Hayit namozining vojib bo'lganligining dalili nima?

**Javob:** «Namoz o'qi va qurbonlik qil» ma'noli oyati karima va Payg'ambarimiz sallallohu alyhi vasallamning doimiy o'qib va o'qittirganliklari hayit namozining vojib bo'lishining dalilidir.

**Savol:** Hayit namozi kimlarga vojibdir?

**Javob:** Hayit namozi juma farz bo'lgan har bir kishiga vojibdir.

**Savol:** Hayit namozining shartlari qaysilar?

**Javob:** Juma namozining sahih (to'g'ri va maqbul) bo'lishi uchun kerakli shartlar hayit namozining sahih bo'lishi uchun ham keraklidir. Biroq juma namozi uchun xutba o'qish farz, hayit namozi uchun sunnatdir.

**Savol:** Hayit namozi qachon o'qiladi?

**Javob:** Hayit namozi bayramning birinchi kuni quyoshning bir yoki ikki nayza bo'yi ko'tarilganidan boshlab to zavol vaqtigacha o'qiladi.

**Savol:** Hayit namozi qanday o'qiladi?

**Javob:** Jamoat bo'lib o'qiladigan hayit namozi uchun azon va iqomat aytilmay imom ikki rak'at Ramazon yoki Qurbon hayiti namoziga niyat qiladi. Jamoat ham «Ikki rak'at hayit namoziga, hozir bo'lgan imomga ergashdim», deb niyat qiladi. «Allohu akbar» deb iftitah (avvalgi) takbiri aytiladi va qo'llar bog'lanadi. Hamma birlikda maxfiy «Subhanaka»ni o'qiydi. Keyin imom jahriy, jamoat esa maxfiy «Allohu akbar» deb uch marta takbir aytadi. Takbir aytganda qo'llar yuqoriga ko'tarilib keyin yonga tashlanadi va takbirlar orasida uch tasbeh miqdori turiladi. Uchinchi takbirdan keyin qo'llar yana bog'lanadi. Imom «A'zu» va «Bismilloh»ni maxfiy aytib, keyin jahriy «Fotiha» surasi bilan Qur'oni karimdan bir miqdor o'qiydi va jahriy «Allohu akbar» deb ruku' va sajdaga ketadi. Jamoat ham maxfiy takbir aytib imomga ergashadi. Keyin yana takbir aytilib

ikkinchi rak'atga turiladi. Imom «Bismilloh»ni maxfiy aytib, keyin yana jahriy «Fotiha» surasi bilan Qur'ondan bir miqdor o'qiydi. Yana uch marta qo'llar ko'tarilib birinchi rak'atdagiga o'xshab uch takbir aytiladi. Keyin imom yana jahriy, jamoat esa maxfiy «Allohu akbar» deb takbir aytib ruku' va sajdaga ketiladi. Keyin o'tirib «Attahiyot», «Solli ala», «Borik alo» va «Robbana» duolari maxfiy o'qilib salom beriladi. So'ngra Imom minbarga chiqib xutba o'qiydi, orqasidan duolar qilinib namoz tugatiladi.

## **Bayramda mustahab bo'lgan narsalar**

**Savol:** Bayramda mustahab bo'lgan narsalar qaysilar?

**Javob:** Bayramda mustahab bo'lgan narsalarning asosiylari shulardir:

1. Bayram kechalarini ibodat bilan o'tkazish;
2. Bayram kunlarida barvaqt turmoq;
3. Yuvinoq (g'usl qilmoq);
4. Misvok ishlatish;
5. Libosning yangi yo tozasini kiyish;
6. Xushbo'yliklar surtish;
7. Ochiq chehra bo'lish;
8. Mutavoze' (xoksor) bo'lish;
9. Ko'p sadaqa bermoq;
10. Bola-chaqaga saxiy bo'lmoq;
11. Masjidga viqor bilan ketmoq;
12. Bayram namoziga ketayotganda Ramazon hayitida maxfiy, Qurbon hayitida esa pastroq ovoz bilan takbir aytib bermoq;
13. Kuchi yetsa namozga yurib bermoq;
14. Iloji bo'lsa namozdan keyin boshqa yo'l bilan uyiga qaytmoq;
15. Ramazon hayitida Hayit namozidan oldin xurmo kabi shirin bir narsa yemoq;
16. Qurbon hayitida esa namoz o'qib bo'lguncha biror narsa yemaslik.

\* \* \*

Allohning irodasi ila ushbu tarjima hijriy 1426 yili zulqa'da oyining 19 kuni, melodiy 2006 yil dekabr oyining 20 kunida tugallandi. Alloh qabul aylasin.

*Sayfiddin SAYFULLOH*

## **MANBALAR**

1. Al-Bahrur-roiq. Sharhi Kanzid-daqiq. Zayniddin Ibn Nujaym, Dorul-ma'rifa, Beyrut, 2 nashr.
2. Badaiu's-sano'iy fi tartibush-shara'iy. Aloiddin Abubakr bin Mas'ud al-Kosoni. Dorul-kitabul-arabiy, Beyrut, 1982 (1402 h).
3. Al-Binayatul fi sharhil-hidoya. Mahmud bin Ahmad al-Ayniy. Dorul-fikr, 1-nashr, 1981.
4. Bug'yatul-mustarshidin. Abdurrahmon bin Mahmud. Dorul-ma'rifa, Beyrut.
5. Buyuk Islom Ilmiholi. O'.Nasuhi Bilman. Bilman nashriyoti, Istanbul.

6. Jomi'ur-rumuz. Shamsiddin Muhammad al-Quhistoniyy, Istanbul, 1300
7. Durarul-hukkom fi sharhi g'urarul-ahkom. Mulla Xusrav. Fazilat nashriyoti, Istanbul, 1979.
8. Al-Anvar li a'molil-abror. Yusuf al-Ardabiliy. Al-maktabatit-tijariyya, Misr.
9. Al-Fatavo al-Hindiyya. Shayx Nazzam. Doru Ihyoit-tirasiil arabiy, Beyrut, 3-nashr, 1980 (1410 h).
10. Al-Fatavo al-hindiyya. Qozixon Mahmud al-O'zjandiy (al-Fatava al-Hindiyya hoshiyasida).
11. Al-Fatava al-Bazzoziyya. Ibnul Bazzaz bin Muhammad bin Shihob (al-Fatava al-Hindiyya hoshiyasida).
12. Fathul qadir (Sharhul-hidoya). Ibn Hummon Kamoliddin Muhammad bin Abdulvohid. Doru Ihyoit-tirasiil-arabiy, Beyrut.
13. al-Fiqhu alal-mazohibil-arba'a. Abdurahmon al-Jazariy. Dorul-fikr, Beyrut.
14. al-Fiqhul-islomiy va adillatuhu. Vahbiy Zuhayliy, Shom, 2-nashr, 1985 (1405 h).
15. Hoshiyatul-jamal ala sharhil-manhaj. Sulaymon al-Jamol. al-Maktabatut-tijoriyya, Misr.
10. Hoshiyatul-Bajuriy. Shayx Ibrohim al-Bajuriy. Matbaatu mustafa al-Bobiy al-Halabiy, Misr, 1343.
11. Hoshiyatush-Shurunbuloliy (Durarul-hukkom bilan birgalikda). Hasan bin Imad ash-Shurunbuloliy.
12. al-Hadiyatul-aloiyya. Aladdin Obidin. Qahramon nashriyoti, Istanbul, 1984.
13. Ionatut-tolibin. Muhammad Shato al-Dimyotiy. Matbaatu mustafa al-Bobiyal-Halabiy, 2-nashr, Misr, 1938 (1357h).
14. Qurbonlik risolasi. Avliyo Afandi. Mehmet Xulusiy, Istanbul, 1320h.
15. Islom dini. A.Hamdiy Aksekiy. Bashbaqanlik nashriyoti. Anqara, 1980.
16. Al-Mabsut. Shamsiddin as-Saraxsiy. Chag'ri nashriyoti, Istanbul, 1983 (1403 h).
17. Majmaul-anhur fi sharhi multaqaal-abhur. Damad Afandi. Abdulloh bin Muhammad. Doru ihyoit-tirasiil-arabiy, Istanbul, 1319 h.
18. Mug'niil-muhtoj ilo ma'rifati ma'onii alfozil-minhoj. Muhammad ash-Shirbiniy al-Xatib. Matbaatu Mustafa al-Bobiy al-Halabiy, Misr.
19. Al-Muhazzab. Abu Ishoq Ibrohim bin Ali ash-Shiroziy. Matbaatu Iso al-Bobiy al-Halabiy, Misr.
20. Nihoyatul-muhtoj bilan sharhi Minhoj. Shamsiddin Muhammad bin Ahmad ar-Ramliy, Matbaatu mustafa al-Babiyal-Halabiy. Misr, 1967 (1386 h).
21. Raddul muxtor. Ibn Obidin Muhammad Amin. Matbaatu Mustafa al-Bobiy al-Halabiy. Misr, 2-nashr, 1966 (1386h).
22. At-Tahtaviy ala Maroqiil-faloh. Ahmad bin Muhammad at-Tahtoviy. Asosiy nashriyot, Istanbul, 1985.
23. Tabyinul-haqoiq sharhu kanzid-daqoiq. Faxriddin Usmon bin Ali az-Zayla'iy. Dorul-ma'rifa, 2-nashr, Beyrut.
24. Tuhfatul-muhtoj bi sharhil-minhoj. Shahobiddin Ahmad bin Hajar al-Haytamiy. Al-Maktabatul-islomiy, Istanbul.

Online o'qish: <http://forum.ziyouz.com/index.php?topic=1796.0>

Forum uchun Laylo tayyorladi.

[www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)

2007